


**Oriental Journal of Philology****ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**A COMPARATIVE-TYPOLOGICAL STUDY OF THE PERSON CATEGORY OF VERBS IN ENGLISH AND UZBEK*****Shakhnoza Muhamedjanovna Jalolova****Associate Professor, Department of English Linguistics**National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek**Faculty of Foreign Philology*[\*shahnoza.jalolova@mail.ru\*](mailto:shahnoza.jalolova@mail.ru)*Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

**Key words:** tense, voice, mood, person and number, the category of negation, taxis, morphological categories, syntactic construction, predicative verbs, morphological syncretism, phenomenon, syntax.

**Received:** 14.12.25**Accepted:** 15.12.25**Published:** 16.12.25

**Abstract:** This article deals with a scientific study of the morphological system of predicative verbs in English and Uzbek from a comparative and typological viewpoint. The research looks closely at the main grammatical categories of verbs, such as tense, mood, voice, aspect (manner), and affirmative and negative forms. It also examines the formation and functional properties of the taxis category, which is unique to English. The formal expression, meaning, and syntax of these categories in both languages are explored in detail alongside the phenomenon of morphological syncretism. Additionally, the article backs up the importance of predicative verbs in maintaining the predicativity of sentences. The results highlight both the similarities and differences in the grammatical systems of English and Uzbek. They also hold value for advancing the field of comparative linguistics and the theory of verbal categories.

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI SHAXS KO‘RSATUVCHI FE‘L KATEGORIYALARINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TADQIQI*****Shaxnoza Muhamedjanovna Jalolova****Ingliz tilshunosligi kafedrasida dotsenti**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti**Xorijiy filologiya fakulteti*[\*shahnoza.jalolova@mail.ru\*](mailto:shahnoza.jalolova@mail.ru)*Toshkent, O‘zbekiston*

---

**MAQOLA HAQIDA**

---

**Kalit soʻzlar:** zamon, nisbat, mayl, shaxs-son, boʻlishli-boʻlishsizlik, taksis, morfologik kategoriyalar, sintaktik qurilma, predikativ feʼllar, morfologik sinkretizm, fenomenon, sintaksis.

**Annotatsiya:** Ushbu maqola ingliz va oʻzbek tillaridagi predikativ (shaxs koʻrsatuvchi) feʼllarning morfologik tizimini qiyosiy-tipologik nuqtai nazardan ilmiy tahlil qilishga bagʻishlangan. Tadqiqotda feʼllarning zamon, mayl, nisbat, davomiylilik (tarz), boʻlishli-boʻlishsizlik kabi asosiy grammatik kategoriyalari hamda ingliz tiliga xos boʻlgan taksis kategoriyasining shakllanishi va funksional xususiyatlari izchil yoritiladi. Har ikkala tilda ushbu kategoriyalarning formal ifodalanishi, semantik yuklamasi va sintaktik realizatsiyasi morfologik sinkretizm hodisasi bilan uzviy bogʻliqlikda tahlil qilingan. Shuningdek, predikativ feʼllarning gap predikativligini taʼminlashdagi roli ilmiy asosda ochib berilgan. Tadqiqot natijalari ingliz va oʻzbek tillari grammatik tizimlaridagi oʻxshashlik va farqlarni aniqlashga xizmat qilib, qiyosiy tilshunoslik va feʼl kategoriyalari nazariyasini rivojlantirishda ahamiyatli hisoblanadi.

---

**СРАВНИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ КАТЕГОРИИ ЛИЦА ГЛАГОЛА В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

*Шахноза Мухамеджановна Джалолова*

*Доцент кафедры английского языкознания*

*Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека*

*Факультет зарубежной филологии*

[shahnoza.jalolova@mail.ru](mailto:shahnoza.jalolova@mail.ru)

*Тошкент, Узбекистан*

---

**О СТАТЬЕ**

**Ключевые слова:** время, залог, наклонение, лицо и число, категория отрицания, таксис, морфологические категории, синтаксическая конструкция, предикативные глаголы, морфологический синкретизм, явление, синтаксис.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается научная исследования морфологической системы предикативных (лично-указательных) глаголов в английском и узбекском языках в компаративно-типологическом ракурсе. В исследовании последовательно рассматриваются основные грамматические категории глагола, такие как время, наклонение, залог, вид (способ действия), утвердительность–отрицательность, а также формирование и функциональные особенности категории таксиса, свойственной английскому языку. Формальное выражение, семантическая нагрузка и синтаксическая реализация данных категорий в обоих языках

---

анализируются в неразрывной связи с явлением морфологического синкретизма. Кроме того, научно обосновывается роль предикативных глаголов в обеспечении предикативности предложения. Результаты исследования служат выявлению сходств и различий в грамматических системах английского и узбекского языков и представляют значимость для развития компаративной лингвистики и теории глагольных категорий.

Shaxs ko'rsatuvchi fe'llar predikatsiyani mustaqil ravishda ifodalaydi. Ular predikatsiyani hosil qiluvchi morfologik zamon va mayl kategoriyalariga ega bo'lganligi uchun gapning kesimini shakllantirib, kesimlilik shaxs ko'rsatuvchi fe'llar bilan bevosita bog'liq bo'ladi: He goes to school (U maktabga bordi); Sid went to London (Sid Londonga ketdi); I'll come at 6 o'clock (Soat oltida kelaman).

Yuqorida ta'kidlanganidek, ingliz va o'zbek tillaridagi shaxs ko'rsatuvchi fe'llarda zamon, mayl, nisbat, davomiylilik (tarz), shaxs-son hamda inkor kategoriyalari mavjud bo'lib, o'zbek tilidan farqli ravishda ingliz tilidagi shaxs ko'rsatuvchi fe'llar taksis morfologik kategoriyasiga ham egadir. Quyida biz ushbu kategoriyalar ustida qisqacha to'xalib, ular orasidagi o'xshashlik va farqlarni yoritishga harakat qilamiz.

Zamon kategoriyasi fe'l ifodalagan harakatning nutq momentiga munosabatini ifodalaydi. Bunda harakatning bajarilishi so'zlovchining nutq so'zlab turgan vaqtdan oldin, so'zlab turgan vaqtda yoki undan keyin sodir bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra, har bir tilda ushbu uchta zamonnini (o'tgan, hozirgi, kelasi) ifodalash uchun o'z vositalari bo'ladi. Ingliz va o'zbek tillarida yuqoridagi zamonlarni ifodalash uchun alohida morfologik vositalar mavjud bo'lib, ular morfologik zamon kategoriyasini tashkil qiladi. Ingliz tilidagi bu kategoriya aniqlik maylida uch hadli, ya'ni o'tgan, hozirgi va kelasi zamon formalarining oppozitsiyasidan (qarama-qarshiligidan) iborat: worked — works — shall/will work.

O'zbek tilida esa aniqlik maylida u ikki hadli: o'tgan zamon (ishladi) va hozirgi-kelasi zamon formalari (ishlaydi) bir-biriga qarama-qarshi turadi. Hozirgi-kelasi zamon formasi kontekstga qarab hozirgi yoki kelasi zamonnini ifodalashi mumkin: Hozirgi zamonda:

-Nima ish qilasan?

-Firmada ishlayman.

Kelasi zamonda:

-Ertaga nima qilasan?

- Ishlayman.

Xuddi shunday holat, ya'ni hozirgi zamon formasining hozirgi va kelasi zamoni ifodalash uchun yaratilganligini, qadimgi ingliz tilida ham kuzatilgan. Qadimgi ingliz tilida fe'ning kelasi zamon shakli bo'lmay, uning vazifasini hozirgi zamon shakli bajargan. [1, 13].

O'zbek tilida zamon kategoriyasini o'rganish bo'yicha ancha yutuqlarga erishilgan bo'lsa ham [2, 60; 3; 4], bu kategoriyaning ayrim jihatlari yetarlicha o'rganilmagan bo'lib, ba'zi tilshunoslar hatto zamon formalariga nom berishdan o'zlarini chetga oladilar. Ayniqsa, zamon kategoriyasi bilan bog'liq bo'lgan morfologik sinkretizm masalasi deyarli o'rganilmagan.

Ma'lumki, bir grammatik shakl bir necha grammatik ma'nolar uchun umumiy bo'lib, bunday hodisa tilshunoslikda morfologik sinkretizm deb ataladi. Masalan, ingliz tilidagi works fe'lidagi -s formanti zamon, mayl, shaxs, son va boshqa grammatik ma'nolarni ifodalaydi. Shu boisdan ko'pgina morfologik kategoriyalarni alohida-alohida ajratib bo'lmaydi.

Morfologik sinkretizm va boshqa ma'nolarning zamon ma'nolarga qo'shilib kelishi natijasida, har bir zamonda bir qancha zamon formalari mavjud bo'lishi mumkin. Masalan, ingliz tilida fe'ning o'tgan zamon formalari quyidagilar: Past Indefinite Active: worked; Past Indefinite Passive: was/were warned; Future Indefinite-in-the-Past (O'tmishdagi kelasi zamon): should/would warn; Past Continuous Active: was/were working; Past Continuous Passive: I was/were being warned; Future Continuous-in-the-Past: should/would be working; Past Perfect Active: had worked; Past Perfect Passive: had been warned; Future Perfect-in-the-Past (O'tmishdagi kelasi tugallangan zamon): should/would have been warned; Future Perfect Continuous-in-the-Past (O'tmishdagi tugallangan davomli zamon): should/would have been working.

Hozirgi o'zbek adabiy tili [5, 287-292] ga ko'ra, o'zbek tilida fe'ning o'tgan zamon formalari quyidagilar hisoblanadi:

O'tgan zamon aniq fe'li: bordim – bordik

bording - bordingiz (bordinglar)

bordi - bordi(lar)

Tarixiy o'tgan zamon fe'li: borganman - borganmiz

borgansan - borgansiz(lar)

borigan - borigan (borishgan)

Uzoq o'tgan zamon fe'li: borigan edim - borigan edik

borigan eding - borigan edingiz (edinglar)

borigan - borigan (borishgan)

O'tgan zamon hikoya fe'li: borib edim - borib edik

borib eding - borib edingiz (edinglar)

borib edi - borib edi (edilar)

Tugallanmagan o'tgan zamon: 1) borar edim - borar edik

borar eding - borar edik

borar edi - borar edi (lar)

borar edi - borar edi (lar)

2) bormoqda edim - bormoqda edik

bormoqda eding - bormoqda edingiz

bormoqda edi - bormoqda edi (lar)

3) borayotgan edim - borayotgan edik

borayotgan eding - borayotgan edingiz

borayotgan edi - borayotgan edi (lar)

4) borayotib edim - borayotib edik

borayotib eding - borayotib edingiz

borayotib edi - borayotib edi (lar)

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan o'zbek tilidagi zamon formalari ingliz tilidagidan ancha rivojlangan ekanligini hamda ikki til o'rtasidagi shaxs va sonda moslashish farqlarning mavjudligini kuzatish mumkin.

Mayl kategoriyasi fe'l ifodalagan harakatning borliqqa bo'lgan munosabatini so'zlovchi nuqtai nazaridan aks ettirilishi hisoblanadi [6, 581]. Mayl harakatning borliqqa munosabatini aks ettirib, shu bilan birga, gapda aytilgan narsaning (voqeaning) ham borliqqa munosabatini aks ettiradi, chunki fe'l odatda o'zining aktantlariga ega. Harakatning realligi uning aktantlari bilan munosabatlarining ifodalanishi demakdir. Boshqacha qilib aytganda, gapda ifodalangan voqeaning realligi odatda fe'ldagi maylga bog'liqdir. Masalan, Kecha yomg'ir yog'di (It rained yesterday) gapida harakatning realligi gap ifodalagan voqeaning (kecha yomg'ir yoqqanligining) ham aniqligini anglatadi. Demak, mayl ingliz va o'zbek tillarida morfologik kategoriya bo'lsa ham, u sintaktik xususiyatga ega bo'lib, ushbu kategoriya tilshunoslikda munozarali masalalardan biri hisoblanadi. Biz esa, ingliz tilida mayllar sonini aniqlashda tilshunoslikdagi zamonlar va mayllar ko'chishi nazariyasini e'tiborga olish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. O'.Q.Yusupov o'zining "Ingliz tili grammatikasidan universal qo'llanma" [7] nomli kitobida mana shu nazariyadan kelib chiqib, ingliz tilida to'rtta maylning mavjudligi haqida fikr bildiradi va ingliz tilida quyidagi mayllarni belgilaydi: Aniqlik mayli: He has come; Buyruq mayli: Come here; Noreallik mayli: If only I were young; I wish it were not raining; Mumkinlilik (ehtimollik) mayli: I suggest he (should) stay. Muallif "If you had come yestrday you would have seen him" va "If I had money I would have bought this car" kabi gaplarda noreallikni ifodalovchi had come, would have seen, had should bought formalarini aniqlik mayli formalarining (Past Perfect, Future Perfect-

in-the-Past, Past Indefinite, Future Indefinite-in-the-Past) ma'lum kontekstlarda noreal ma'noni ifodalashi, ya'ni mayllar ko'chishi deb hisoblaydi.

O'zbek tilshunosligida aniqlik, buyruq va shart mayllari deyarli barcha tilshunoslar tomonidan, shu jumladan biz tomonimizdan ham e'tirof qilinadi. Ayrim tilshunoslar [8, 351; 9, 214; 10, 59] -moqchi affiksi olgan fe'l formasini maqsad maylining formasi deb qaraydilar. Bizningcha, bu masalaga munosabat bildirishda, maqsadning o'zi mavjudligi va uning amalga oshishi mumkinligini hisobga olgan ma'qul deb bilamiz. Masalan, Erkin Toshkentga kelmoqchi gapida maqsadning borligi real, ammo maqsadning amalga oshishi esa ehtimol bo'lib, har bir inson doimo o'z maqsadiga ega bo'ladi, ammo maqsad amalga oshishi yoki oshmasligi ham mumkin. Bundan ko'rinadiki, kelmoqchi kabi maqsad ifodalovchi fe'llarda uning ro'yobga chiqishi emas, balki uning haqiqatan ham mavjudligi tasdiqlanyapti, ya'ni so'zlovchi Erkinning Toshkentga kelish maqsadi/niyati borligini tasdiqlayapti. Anglashiladiki, bunday fe'llar aniqlik mayli formalaridan biri bo'lib, bu formaning o'tgan zamon formasi unga edi yordamchi fe'lini qo'shish yo'li bilan yasaladi: kelmoqchi edi.

O'zbek tilidagi mayllar haqida so'z borar ekan, bu tildagi kelgandir- kelayotgandir-kelar kabi fe'llarda -dir va -ar affikslari gumon ma'noni ifodalashi inkor qilinmaydi, ammo negadir bu qo'shimchalarni gumon mayli hosil qilishi mumkinligi haqida fikr bildirilmaydi. Bizningcha, bu formantlar o'zbek tilida gumon maylining kategorial formallari hisoblanadi. Kelgandir so'zida kelmoq fe'li gumon maylining o'tgan zamon formasida, kelayotgandir so'zida u gumon maylining hozirgi zamon davomiylik tarzi formasida, kelar so'zida gumon fe'lining kelasi zamon formasida qo'llanilgan bo'lib, bu fikr, albatta, alohida tadqiqotlarni talab qiladi.

Yuqorida keltirilgan ingliz tilidagi mayllar ko'chishi hodisasi o'zbek tilida ham kuzatiladi. Ba'zi tilshunoslar fikricha "tugallanmagan o'tgan zamon fe'li" deb ataladigan fe'l formasi -(a)r edi kontekstga qarab real ma'no yoki noreal ma'no anglatishi mumkin. Masalan, quyidagi keltirilgan ikki misolning birinchisida u real ma'no, ikkinchisida esa noreal ma'noni anglatadi: 1) Bulturlari Ahmadlarnikiga tez-tez borib turar edim; 2) Qani edi, vaqtim bo'lsa. Ahmadlarnikiga tez-tez borib turar edim.

Birinchi kontekstni "Bulturlari" so'zi, ikkinchisini "Qani edi, vaqtim bo'lsa" gapi hosil qilganligi sababli, -(a)r edi formasini aniqlik maylining formalaridan biri deb qarash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Nisbat kategoriyasini o'zbek tilshunosligida ba'zi tilshunoslar "daraja kategoriyasi" deb ataydilar [Qarang: 8, 328]. Biz bu kategoriyani sifat so'z turkumidagi daraja kategoriyasidan farqlash maqsadida yuqorida keltirilgan atamani qo'llashga qaror qildik.

Fe'ldagi nisbat kategoriyasi harakatning ega ifodalagan predmetdan chiqqanligini yoki, aksincha, unga yo'naltirilganligini ifodalaydi.

Hozirda ingliz tilida ikkita nisbat, ya'ni aktiv va passiv nisbatlarining mavjudligi barcha ingliz grammatistlari tomonidan e'tirof etiladi.

Aktiv nisbat harakatning ega ifodalagan narsadan chiqishi, passiv nisbat esa harakatning ega ifodalagan narsaga yo'naltirilganligini ifodalaydi: John wrote a letter to Mary (Jon Meriga xat yozdi) – aktiv nisbat; The letter was written to Mary by John – passiv nisbat.

M.Alamova fikriga [11] ko'ra, o'zbek tilshunosligida quyidagi beshta nisbat barcha tilshunoslar tomonidan tan olinadi: Aktiv (aniq, bosh) nisbat: yuvdi; O'zlik (qaytim) nisbati: yuvindi; Passiv (majhul) nisbat: yuvildi; Orttirma (kauzativ, qo'zg'atish) nisbat: yuvdirdi; Birgalik nisbati: yuvishdi. Ammo aytish lozimki, olimlar bir fe'l formasida birdan ortiq nisbat bo'lishi mumkinligini ham e'tirof etadilar. Masalan, bu hodisa haqida HO'AT [5, 273-274] nomli nazariy manbada quyidagicha ta'kidlanadi: "Fe'llarda daraja shakllari" ba'zan qorishiq tarzda, biror daraja shaklidagi fe'lga yana boshqa biror daraja yasovchi affiks qo'shib, murakkab shakllarda kela oladi: kel-tir-il-moq, yig'-ish-tir-moq, tani-sh-tir-moq, ko'r-sat-ish-moq kabilar. Ushbu manbada qorishiq darajalarning quyidagi 11 turi tilga olinadi: 1) Qaytim-majhul: beza-n-il-di; 2) Qaytim-qo'zg'atish: yuv-in-tir-di; 3) Majhul-qo'zg'atish: osil-tir-di; 4) Qo'zg'atish-qo'zg'atish: ye-dir-tir-di; 5) Birgalik-majhul: tani-sh-il-di; 6) Qo'zg'atish-majhul: o'qit-il-di; 7) Birgalik-qo'zg'atish: ur-ish-tir-di; 8) Birgalik-qo'zg'atish-majhul: yig'-ish-tir-ildi; 9) Qo'zg'atish-qo'zg'atish-majhul: kel-tir-giz-il-di; 10) Qaytim-qo'zg'atish-majhul: yuv-in-tir-il-di; 11) Majhul- qo'zg'atish-majhul: os-il-tir-il-di.

Bir fe'lning bir necha nisbatga ega bo'lishi mumkinligi haqidagi fikrni "Hozirgi zamon o'zbek tili" nomli asarda ham uchratish mumkin [Qarang:12, 438-439]. Bunday fikr, bizningcha, grammatik kategoriyalarni ajratish tamoyillariga zid keladi. Bu haqida A.I.Smirtitskiy [13, 9] shunday yozadi: "Ни в какой слове формы не могут соединяться одновременно две категориальные формы одной и той же категории: не может быть одновременно формы двух падежей, двух чисел и пр. И если в английском языке мы наблюдаем в одной словесной форме категориальной формы "перфекта" и категориальной формы "длительной" (ср. (he) has been waiting (он ждал), то это с несомненностью указывает на то, что данные категориальные нормы принадлежат разным категориям". Shu tamoyildan kelib chiqqan holda, O'.Q.Yusupov va D.Ma'mirboyevlar [14, 49-50] o'zbek va qoraqalpoq tillarida uchta nisbatni, ya'ni aktiv, passiv va o'zlik nisbatlarinigina e'tirof qilishni taklif qiladilar. Ular "kauzativ" va "birgalik" deb atalmish nisbatlarni esa, boshqa hali o'rganilmagan grammatik kategoriyalar bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydilar.

Bizningcha, kauzativ nisbatni morfologik kauzativ kategoriya deb atagan ma'qul, chunki bu forma kauzatsiya ma'nosini ifodalaydi. Masalan, "Olim Nodirga mashinasini yuvdirdi" gapida Olim kauzator, Nodir kauzatsiya obyekt va yuvish harakatining bajaruvchisidir (patsiyens). Ko'p

hollarda gapda agens ifodalanmaydi: Olim mashinasini yuvdirdi; Sochimni oldirdim. Bunday holatlarda soʻzlovchi ataylab agensni atamaydi yoki agens prsuppozitsiyada boʻladi.

Birgalik maʼnosini nisbat maʼnosidan tubdan farq qilishini sezgan X.T.Shodiyev [15] birgalik nisbatini “tipologik yordam kategoriyasi” (типологическая категория ассистивности) deb ataydi. Kauzativ va yordam kategoriyalari haqidagi mazkur ikki fikr maxsus tadqiqotlarni talab qiladi.

Ingliz tilida passiv forma faqat oʻtimli feʼllardan yasaladi, oʻzbek tilida esa passiv forma oʻtimli feʼllardan tashqari yana insonning harakatini ifodalovchi oʻtimsiz feʼllardan ham hosil boʻlishi mumkin [16,12]: bormoq-borilmoq; joʻnamoq-joʻnalmoq; yotmoq-yotilmoq; kirmoq-kirilmoq; ketmoq-ketilmoq; chiqmoq-chiqilmoq va boshqalar. Masalan, Ertaga Samarqandga boriladi; Pochtaga qanday boriladi?; Bugun ishdan erta chiqiladi; Angrenga qachon ketiladi?

M.M.Mujdaboyev [17, 12] oʻtimsiz feʼllardan hosil boʻlgan bunday gaplarni shaxssiz majhul gaplar (bezlichno-stradatelniye predlojeniya) deb ataydi. Bunday gaplar ingliz tilida mavjud emas.

Oʻzbek tilida esa ingliz tilidagi “The doctor was sent for” kabi tarkibida otdan uzoqlashib ketgan koʻmakchili (predlogli) passiv sintaktik qurilmalar mavjud emas.

Oʻzlik nisbatining boshqa nisbatlardan farqi shundaki, u ifodalagan harakat ega ifodalagan agensdan chiqib, shu agensning oʻziga qaytadi: Olim yuvindi; Halima tarandi.

Demak, oʻzlik nisbati qoʻllanilganda, ega ifodalagan shaxs aynan bir vaqtning oʻzida ham agens, ham patsiyens vazifalarida keladi. Oʻzlik nisbatining boshqa maʼnolari ham mavjud boʻlib, ular M.Alamovanning ilmiy tadqiqotida [11] batafsil yoritilgan.

Demak, ingliz tilida nisbat ikki hadli oppozitsiyadan – aktiv-passivdan, oʻzbek tilida esa, uch hadli oppozitsiyadan – aktiv, oʻzlik va majhul nisbatlardan tashkil topgan. Oʻzbek tilidagi aktiv, oʻzlik va majhul nisbatlarining formalari, maʼnolari va qoʻllanilishi haqida yetarli maʼlumotlar mavjud [Qarang: 11; 5, 328-337; 18, 193-197 va boshq.].

Ammo, aytish lozimki, ingliz tilida passiv oʻzbek tilidagidan ancha keng qoʻllaniladi va bu oʻzbek tilida remani ifodalashda, urgʻu bilan kesimning xizmati yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi. Shu boisdan tarjimada ingliz passiviga oʻzbek tilida aktiv toʻgʻri kelishi mumkin: Bu uyni ishchilar qurgan – This house was built by workers.

Davomiylik (tarz) kategoriyasi. Harakat ham predmetlar kabi juda koʻp belgi va sifatlarga ega boʻlib, unda boshlanish, davomiylik, tugallanganlik, takroriylik, chegaralanganlik, intensivlik, yoʻnalish, favquloddalik belgi-sifatlar mujassamdir. Harakatdagi bu belgi-sifatlar tilshunoslikda aspektologik belgilar sanaladi. Bu belgilar tillarda turli vositalar yordamida – leksik, grammatik va implitsit (yashirin) usulda ifodalanishi mumkin. Masalan, Gʻ.Q.Mirsanov oʻzining nomzodlik

dissertatsiyasida [19] mana shunday aspektual ma'nolarning ayrimlarini turli vositalar yordamida ingliz va o'zbek tillarida ifodalanishini ochib bergan.

O'zbek tilida turli xil aspektual ma'nolarni ifodalashda ko'makchi fe'llar katta rol o'ynaydi. Bu haqida bir qancha adabiyotlarda ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, xususan A.A.Yuldashev [9, 39-86] turkiy tillarda, shu jumladan o'zbek tilida, aspektual ma'nolarni ifodalovchilar tarkibida ko'makchi fe'llar mavjud bo'lgan 15 ta analitik formalarni o'rgangan. Bu analitik formalarning o'zbekcha variantlari quyidagilar: -b yot-: ishlab yotibman; -b o'tir-: ishlab o'tiribman; -b tur-: ishlab turibman; -b yur-: ishlab yuribman; -a tur-: bora tur; -b bor-: yaxshilanib bormoqda; -b kel-: borib keldim; -a ber-: o'tira ber; -a bor-: yaqinlasha boradi; -b tush-: yiqilib tushdim; -b chiq-: kirib chiqdim; -b ol: Ovqatingni yeb ol; -b yubor: kulib yubordim; -b tashla: yozib tashladim; -b ket: yuragim o'ynab ketdi. A.A.Yuldashev bu formalarning aspektual ma'nolarini imkon darajasida o'rgangan bo'lsa-da, ularni tizimlashtirish masalasini ochiq qoldirgan.

Tarz kategoriyasi haqida so'z borar ekan, shuni ta'kidlash lozimki, eng avvalo tilshunoslarning e'tibori slavyan tillaridagi, shu jumladan rus tilidagi, harakatning tugallanganlik ma'nosi va uning grammatik usulda ifodalanishiga (делать-сделать) qaratildi va ular uni grammatik vid (tarz) kategoriyasi deb atadilar. Bu fikr mutlaqo to'g'ri edi, lekin bizning fikrimizcha, undan noto'g'ri xulosa chiqarilgan bo'lib, grammatik sistemasida bunday grammatik kategoriya bo'lmagan tillar vidsiz, yani tarzsiz tillar deb hisoblana boshlandi. Bu fikr ayniqsa, rus grammatikasidan andoza olib yozilgan darsliklarga, shu jumladan, o'zbek tili grammatikalariga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Afsuski, aksariyat o'zbek tilidagi grammatik qo'llanmalarda tarz kategoriyasi mutlaqo tilga olinmaydi. Tarz kategoriyasi e'tirof etilgan grammatik adabiyotlar, darslik va qo'llanmalarda esa, grammatik sath bilan leksik sath birliklari qorishtirib yuborilgan. Masalan, HO'AT [5, 301] kitobida surtmoq-surtimoq, tommoq-tomchilamoq kabi so'zlar, HZO'T [12, 425-426] asarida turtmoq-turtkilamoq, burmoq-buramoq kabi so'zlar grammatik tarz kategoriyasiga misol sifatida keltiriladi. Haqiqatan ham bu so'zlarda ayrim aspektual ma'nolar ifodalangan, ammo ular grammatik usulda emas, balki leksik usulda, ya'ni so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida ifodalangan. Bunday so'zlar juda ozchilikni tashkil etib, ularni qoidaga moslab bo'lmaydi. Grammatik kategoriyalar esa, o'zlarining doimiy kategorial formalariga ega bo'lib, ular juda ko'p so'zlarni qamrab olishlari kerak hamda kategoriyalarni ifodalovchi formalar soni aniq bo'lishi lozim.

Yuqorida to'xtalib o'tilganidek, rus tili aspektual ma'nolardan tugallanganlik (sovershennost) ma'nosini grammatik usulda ifodalaydi. Ingliz va o'zbek tillarida esa aspektual ma'nolardan davomiylik ma'nosi grammatik usulda ifodalanadi.

Hozirgi zamonda

Birlik

Ko'plik

<i>1-uu. I am working</i>	<i>1-uu. We are working</i>
<i>Men ishlayapman</i>	<i>Biz ishlayapmiz</i>
<i>2-uu. You are working</i>	<i>2-uu. You are working</i>
<i>Sen ishlayapsan</i>	<i>Siz ishlayapsiz</i>
<i>3-uu. He is working—U ishlayapti</i>	<i>3-uu. They are working</i>
<i>She is working—U ishlayapti</i>	<i>Ular ishlayapti</i>
<i>It is working—U ishlayapti</i>	

O'tgan zamonda

Birlik

Ko'plik

<i>1-uu. I was working</i>	<i>1-uu. We were working</i>
<i>Men ishlayotgan edim</i>	<i>Biz ishlayotgan edik</i>
<i>2-uu. You were working</i>	<i>2-uu. You were working</i>
<i>Sen ishlayotgan eding</i>	<i>Siz ishlayotgan edingiz</i>
<i>3-uu. He was working—U ishlayotgan edi</i>	<i>3-sh. They were working</i>
<i>She was working—U ishlayotgan edi</i>	<i>Ular ishlayotgan edi</i>
<i>It was working—U ishlayotgan edi</i>	

Kelasi zamonda

Hozirgi-kelasi zamonda

Birlik

Ko'plik

<i>1-uu. I shall be working</i>	<i>1-uu. We shall be working</i>
<i>Men ishlayotgan bo'laman</i>	<i>Biz ishlayotgan bo'lamiz</i>
<i>2-uu. You will be working</i>	<i>2-uu. You will be working</i>
<i>Sen ishlayotgan bo'lasan</i>	<i>Siz ishlayotgan bo'lasiz</i>
<i>3-uu. He will be working</i>	<i>3-uu. They will be working</i>
<i>U ishlayotgan bo'ladi</i>	<i>Ular ishlayotgan bo'ladi</i>
<i>She will be working</i>	
<i>U ishlayotgan bo'ladi</i>	
<i>It will be working</i>	
<i>U ishlayotgan bo'ladi</i>	

Davomiylikni ifodalovchi formalar davomiylikni ifodalamaydigan formalar bilan oppozitsiyaga kirishib, ingliz va o'zbek tillarida ikki hadli tarz kategoriyasini, ya'ni davomiylik morfologik kategoriyasini, hosil qiladi:

Ingliz tilida, hozirgi zamonda

Birlik		Ko‘plik	
<i>1-uu. I work</i>	<i>I am working</i>	<i>1-uu. We work</i>	<i>We are working</i>
<i>2-uu. You work</i>	<i>You are working</i>	<i>2-uu. You work</i>	<i>You are working</i>
<i>3-uu. He works</i>	<i>He is working</i>	<i>3-uu. They work</i>	<i>They are working</i>
<i>She works</i>	<i>She is working</i>		
<i>It works</i>	<i>It is working</i>		

O‘zbek tilida, hozirgi zamonda

Birlik		Ko‘plik	
<i>1-sh. Men ishlayman</i>	<i>Men ishlayapman</i>	<i>1-sh. Biz ishlaymiz</i>	<i>Biz ishlayapmiz</i>
<i>2-sh. Sen ishlaysan</i>	<i>Sen ishlayapsan</i>	<i>2-sh. Siz ishlaysiz</i>	<i>Siz ishlayapsiz</i>
<i>3-sh. U ishlaydi</i>	<i>U ishlayapti</i>	<i>3-sh. Ular ishlaydi(lar)</i>	<i>Ular ishlayapti</i>

Ingliz tilida, o‘tgan zamonda

Birlik		Ko‘plik	
<i>1-uu. I worked</i>	<i>I was working</i>	<i>1-uu. We worked</i>	<i>We were working</i>
<i>2-uu. You worked</i>	<i>You were working</i>	<i>2-uu. You worked</i>	<i>You were working</i>
<i>3-uu. He worked</i>	<i>He was working</i>	<i>3-uu. They worked</i>	<i>They were working</i>
<i>She worked</i>	<i>She was working</i>		
<i>It worked</i>	<i>It was working</i>		

O‘zbek tilida, o‘tgan zamonda

Birlik

<i>1-sh. Men ishladim</i>	<i>Men ishlayotgan edim</i>
<i>2-sh. Sen ishlading</i>	<i>Sen ishlayotgan eding</i>
<i>3-sh. U ishladi</i>	<i>U ishlayotgan edi</i>

Ko‘plik

<i>1-sh. Biz ishladik</i>	<i>Biz ishlayotgan edik</i>
<i>2-sh. Siz(lar) ishladingiz(lar)</i>	<i>Siz(lar) ishlayotgan edingiz(lar)</i>
<i>3-sh. Ular ishladi(lar)/ishlashdi</i>	<i>Ular ishlayotgan/ishlashyotgan edi</i>

Ingliz tilida yana quyidagi juft formalar ham dovomiylik tarz kategoriyasi hadlarini hosil qiladi: Present Perfect – Present Perfect Continuous

*have worked – have been working*

*has worked – has been working*

Past Perfect – Past Perfect Continuous

*had worked – had been working*

*Future Perfect – Future Perfect Continuous**shall/will have worked – shall/will have been working*

Aytish lozimki, o‘zbek tili davomiylikni ifodalovchi grammatik formalarga juda boy bo‘lib, bu ma‘noni -yap formasidan tashqari yana -yotir (ishlayotirman), -moqda (ishlamoqdaman), -yotib (ishlayotibman), -(i)b turib (ishlab turibman) formalari ham ifodalaydi [20, 199-200]. Bu formalarni J.Bo‘ronov, O‘.Q.Yusupov, M.T.Irisqulov, A.S.Sodiqovlar birinchi, ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi davom fe‘li formalari deb ataydilar. Shunga o‘xshash terminlar (I,II,III,IV,V forma progressiva) V.Reshetovning “Основы фонетики и грамматики узбекского языка” nomli [21, 135-139] asarida ham qo‘llanilgan.

A.N.Kononov o‘zbek tilida tarz kategoriyasi mavjudligi haqida fikr bildirmasa ham, davomiylikni ifodalovchi formalarning aksariyatini tilga oladi va quyidagicha ataydi: Настоящее-длительное время: (yoz-moq-da-man); Настоящее-конкретное время: (yoz-yap-man); (yoz-a-yotir-man); (yozib turibman); (yozib o‘tiribman); (yozib yuribman); (yozib yotibman); Определенный имперфект: (yoz-a-yotgan-edim); Прошедшее длительное время (yoz-moq-da edim) [22]. Ko‘rinib turibdiki, birinchi (Настоящее-длительное время) va to‘rtinchi terminlarda (Настоящее-конкретное время) davomiylik ma‘nosiga ishora mavjud bo‘lib, ikkinchi (Настоящее-конкретное время) va uchinchi atamalarda (Определенный имперфект) davomiylik ma‘nosiga ishora bo‘lmasada, ularga ta‘rif berilganda, bu ma‘no tilga olingan [Qarang: A.N.Kononov. 22, 214 b, 227 b].

O‘ylaymizki, biz belgilagan davomiylik tarz kategoriyasi grammatik kategoriyalarni belgilash talablariga to‘la javob beradi. U ikki hadli binar oppozitsiyadan iborat davomiylikni ifodalamaydigan va davomiylikni ifodalaydigan formalar hisoblanadi. Birinchi had belgisiz, unda davomiylik ma‘nosi ham, uni ifodalovchi forma ham yo‘q. Ikkinchi had esa, belgili (-yap), unda davomiylik ma‘nosi mavjud bo‘lib, har ikki tildagi barcha predikativ fe‘llarda ushbu kategoriya mavjud.

Bo‘lishli-bo‘lishsizlik kategoriyasi. Bu morfologik kategoriyaning mavjudligi barcha o‘zbek grammatistlari tomonidan e‘tirof qilingan. U ikki hadli oppozitsiyaga ega bo‘lib, birinchi hadi belgisiz, yani bo‘lishlilik formasi deb ataladi, ikkinchi hadi esa belgili (-ma), u bo‘lishsizlik formasi hisoblanadi. Masalan: ishlayman – ishlamayman; ishladim – ishlamadim; ishlaganman – ishlamaganman; ishlayapman – ishlamayapman; ishlay – ishlamay; ishlagan edim – ishlamagan edim va hokazo.

Bo‘lishsizlik leksik va boshqa yo‘llar bilan ifodalanishi mumkin. Masalan, ishlagani yo‘q, ishlaydi-ya ishlaydi, olasan ishlaydi, ishlabo‘pti, tuyani dumi yerga tekkanda ishlaydi. Bunday holatda kim ishlar ekan? va hokazolar. Ammo bu formalar morfologik inkor kategoriyasi paradigmasiga kirmaydi.

Ingliz tilshunosligida morfologik inkor kategoriyasi aksariyat grammatistlar tomonidan e'tirof qilinmaydi. Ularning fikricha, bo'lishsizlik bu tilda leksik usulda, ya'ni not yuklamasi yordamida ifodalanadi: is working – is not working; was working – was not working; will be working – will not be working; has worked – has not worked; can work – can not work va hokazo.

Ingliz tilida shunday fe'l formalari borki, ularning inkor formalarini yasashda not yuklamasidan tashqari to do (do, does, did) yordamchi fe'lini ishlatishni talab qiladi. Bu holat Present va Past Indefinite larda sodir bo'ladi. Masalan: works – does not work; worked – did not work Come! – do not/don't come!

A.I.Smirnitskiy fikriga ko'ra, mana shunday juftliklar ingliz tilida morfologik inkor kategoriyasini hosil qiladi [13, 89-91].

Taksis kategoriyasi. Harakat yoki voqea ikkita bo'lsa, ularning zamondagi tartibi uch xil bo'lishi mumkin: bir harakat ikkinchi harakatdan 1) oldin, 2) bir vaqtda yoki 3) keyin sodir bo'lishi mumkin: He said he had written a book (Birinchi harakat ikkinchi harakatdan keyin sodir bo'lgan); He said he was smoking (Ikkala harakat bir vaqtda sodir bo'lgan); He said he would write a book (Ikkinchi harakat birinchi harakatdan keyin sodir bo'lgan yoki sodir bo'ladi).

Harakatlarning bir-biriga nisbatan zamondagi bunday tartibi (oldinlik, bir vaqtlilik, keyinlik) taksis deb ataladi. Agar taksis aniq maxsus grammatik vositalar yordamida ifodalansa va tizim (sistema) hosil qilsa, u mustaqil grammatik (morfologik) kategoriya hisoblanadi. Ingliz tilida taksisning ikki komponenti – oldinlik va keyinlik aniq grammatik formalar yordamida ifodalanadi. Oldinlikni Past Perfect formalari, keyinlikni esa Future-in-the-Past formalari ifodalaydi. Bir vaqtlilik esa Participle I yoki while, when, as bog'lovchili payt ergash gaplar yordamida ifodalanadi. Misollar yuqorida berilgan.

Demak, ingliz tilida taksis morfologik kategoriyasi mavjud, u ikki a'zoli oppozitsiyadan iborat. Birinchi a'zosi Past Perfect formalari oldinlik ma'nosini, ikkinchi a'zosi Future-in-the-Past formalari keyinlik ma'nosini ifodalaydi. Taksis ma'nolari ingliz tilida boshqa vositalar yordamida ham ifodalanishi mumkin. Ular O.Isarov [23] tomonidan yetarli o'rganilgan.

Taksis ma'nolari va ularni ifodalovchi vositalar har qanday tilda, shu jumladan o'zbek tilida ham mavjud, ammo taksis bu tilida grammatik kategoriya sifatida mavjudmi yoki yo'qmi, bu tadqiqot talab masala hisoblanadi.

Taksis tobe (nisbiy) bo'lishi mumkin. Bunda taksis ma'nolari kesimdagi fe'lning zamon ma'nosiga bog'liq (tobe) bo'ladi. Bunday holat ingliz tilidagi sifatdosh I da va o'zbek tilidagi ravishdosh va sifatdoshlarning ayrim turlarida ko'rinadi.

Bundan tashqari, taksis maqsadli va maqsadsiz bo'ladi [12]. Maqsadli taksisda so'zlovchi taksis ma'nolarini (oldin kelishlik, birvaqtlilik va keyin kelishlik) ataylab ifodalaydi. Masalan: U kelguncha, ishni tugatib qo'ydim gapida so'zlovchining maqsadi birinchi harakatning (ishning)

ikkinchi harakatdan oldin bajarilganini ta'kidlashdan iboratdir. Maqsadsiz taksisda bir harakatning ikkinchisiga nisbatan oldin, bir vaqtda keyin sodir bo'lishini ifodalashni, so'zlovchi istaydimi-yo'qmi, sintaktik qurilma majbur qiladi. Masalan, Singan piyola tashlab yuborildi gapida birinchi harakat (sinish) ikkinchi harakatdan (tashlab yuborishdan) avval sodir bo'lgan. Bu yerda birinchi harakatning ikkinchi harakatdan oldin sodir bo'lganligini ifodalash so'zlovchining maqsadiga kirmagan, uni ifodalashni sintaktik qurilma talab qiladi.

Demak, shaxsli fe'llar shaxssiz fe'llardan farqli o'laroq harakatni sof ifodalab, yuqorida tahlil etilgan barcha kategoriyalarga ega hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ильиш Б. Строй современного английского языка. –Л: Просвещение, 1958. – 296 с.
2. Коклянова А. А. Категория времени в современном узбекском языке. – М.: Изд.АН СССР, 1963. – 124 с.
3. Hojiyev A. Fe'l. // O'zbek tili grammatikasi. –Т.: Fan, 1975. – 365-527 betlar.
4. Meliyev K. Turkiy tillarda fe'l kategoriyalari. –Т.: Fan, 2001. – 164 b.
5. HO'AT. – Hozirgi o'zbek adabiy tili. Qism I. –Т.: Fan, 1966. – 340 b.
6. Виноградов В. В. Русский язык. –М., 1947/1972. -614 с.
7. Yusupov U.K. Ingliz tili grammatikasidan universal qo'llanma. –Toshkent, 2011. - 375 b.
8. HO'AT. – Hozirgi o'zbek adabiy tili. Qism I. –Т.: O'qituvchi, 1980. – 448 b.
9. Юлдашев А. А. Аналитические формы глагола в тюркских языках. – М.: Наука, 1965. – 275 с.
10. Meliyev K. Hozirgi turkiy tillarda harakat nomlari. –Т.: Fan, 1969. – 163 b.
11. A'lamova M. O'zbek tilidagi fe'llarda nisbat kategoriyasi. –Toshkent: Fan, 1992. – 108 b.
12. HZO'T. – Hozirgi zamon o'zbek tili (Faxriy Kamol tahriri ostida) –Т.: O'z.SSR FA, 1957. –526 b.
13. Смирницкий А. И. Морфология английского языка. –М.: Изд. Литературы на иностранных языках. 1959. –440 с.
14. Юсупов У. К., Мамырбаева Д. Д. Проблема категории залога в разносистемных языках // Хозирги замон тилшунослигининг долзарб масалалари. Жилд II. –Андижон, 2004. –49-50 б.
15. Шадиев Х.Т. Типологическая категория ассистивности и билингвистические вопросы ее корреспондирования в английском и узбекском языках: автореф. дисс. ...канд. филол. наук. –Т., 1989. –18 с.

16. Muhamedova S. O'zbek tilida harakat fe'llarining semantikasi. –T.: Fan, 2005. – 121 b.
17. Муждабаев М.М. Безлично-страдательные предложения в современном узбекском языке. –Т.: Изд ТашГУ, 1960. –39 с.
18. HO‘AT – Hozirgi o`zbek adabiy tili. –Т., 2009. – 414 b.
19. Mirsanov G'.Q. Ingliz va o'zbek tillarida yurish-harakat fe'llarning aksional va aspektual xususiyatlari: filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. –Toshkent, 2008. – 28 b.
20. Buranov J, Yusupov U.K, Sadikov A, Iriskulov M. The Grammatical Structures of English, Uzbek and Russian. Part I. –Т.: Ukituvchi, 1986. –308 p.
21. Решетов В. В. Основы фонетики, морфологии и синтаксиса узбекского языка. –Т.: Средняя и высшая школа, 1961. -243 с.
22. Кононов А. Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М. –Л., 1960, - 446 с.
23. Isarov O. Ingliz tilida taksisning ifodalanish tahlili: filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. –Toshkent, 2009. – 24 b.